

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma xuquqida

Qaxarova Gulchexra Maxmudovna

**Yoshlar qomati, konstitutsion tiplari va ularni qomatlarini
mustahkamligiga bog'liqligi.**

**5A420103-Odam va hayvonlar fiziologiyasi mutaxassisligi
bo'yicha magistr akademik darajasini olish**

uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

Biologiya fanlari nomzodi,

dotsent.

S.Isroiljonov

Fag'ona-2012

MUNDARIJA

Kirish.....
I - BOB. Yoshlar qomatini konstitusion tiplari.....
I.1.Odam qomatini konstitusion tiplari haqida tushuncha.....
I.1.1. Ayollar qomatini tasnifi.....
I.1.2. Oyoq shakllari.....
I.1.3. Kaftni tashqi ko'rinishi va uni izlari.....
I.1.4. Ko'krak qafasining potologik shakllari.....
I.1.5. Sheldon bo'yicha odamni konstitusion tiplari.....
I.1.6. Bunak bo'yicha odamni konstitusion tiplari.....
I.1.7.Odam qomatini konstitusion tiplari haqidagi hozirgi zamondagi konsepsiyalar.....
II - BOB. Yoshlarni qomatini konstitusion tiplari va ularni yoshga bog'liq xususiyatlarini o'rganish usullari.....
II.2.1. Antropometriya.....
II.2.2. Kettle va pin'e testlari.....
III - BOB. Yoshlar qomatini konstitusion tiplari va ularni yoshga bog'liq xususiyatlarini o'rganish bo'yicha olingan natijalar va ularni taxlili.....
Xulosa va tavsiyalar.....
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....
Foydalanilgan internet saytlar ro'yxati.

Kirish.

Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan.

Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo'lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi.

Bugungi kunda qilayotgan barcha ishlar yoshlarning baxtu saodati, ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu-saodat faqat boylik, molu-mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnarsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

Oilada ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil-bu ta'lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi-bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, yoshlarni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash asosiy vazifamizdir.

Bu yorug' dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzod hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi. Muxtasar aytganda, oila sog'lom ekan-jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan-mamlakat barqarordir.

Tanlangan dissertatsiya mavzusi haqida qisqacha ma'lumot.

Yoshlarni, ayniqsa o'zbek yoshlarini qomatlarini tiplari, xolati, mustahkamligi darajasi, antropometrik o'lchamlar orqali ilmiy usullarni qo'llab o'rganilmagan. Xozirgacha esa faqat vizual holdagi baholashlar ko'proq mavjud bo'lib, ularni sub'ektiv holda bo'lishi ushbu baholashlarni to'laqonli emasligidan dalolat beradi. Shunday ekan dissertatsiya davomida aniqlanmagan qomat tiplari va boshqa yangi ilmiy usullar yangilik asosida yoritilgan.

Himoyaga olib chiqilayotgan xolatlar.

Magistrlik ishi yuzasidan Farg'ona Davlat Universiteti Respublika yosh olim va iqtidorli talabalarning "Ilm-zakovatimiz senga, ona-Vatan!" mavzusidagi ilmiy amaliy anjumanida (Farg'ona 2011-2012), mavzusidagi Respublika ilmiy amaliy konferensiyalarda ma'ruzalar qilingan. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 2 ta ilmiy ish chop etildi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Kirish. III. bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va internet saytlardan iborat. Jami bet kompyuter matnidan iborat.

Dissertatsiya tarkibi:

Dissertatsiya 70 bet, 16 ta jadvaldan iborat bo'lib, mavzuni yoritishda 25 ta chet el adabiyotida keltirilgan ma'lulotlardan hamda "Nauki.antropometriya" saytlaridan qo'shimcha tarzda foydalanildi.

Ilmiy ishning maqsad va vazifalari.

- Fiziologik tadqiqotlarni matematik taxlil bo'yicha o'rganish;
- 13-22 yoshli qizlarni antropometrik o'lchamlarini o'rganish va taqqoslash;
- Qomat mustahkamligi bo'yicha ilmiy manbalarni yoritish;
- Tana indekslarini hisoblash;
- Tana va gavda qismlarini amaliy o'tkazish;
- Antropometrik o'lchamlarda ishlaydigan asbob-uskunalarini o'rganish.

Farg'ona Davlat Universiteti magistratura
bo'limi "Tabiiyot" fakulteti "Zoologiya"
kafedra Odam va hayvonlar
fiziologiyasi mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Qaxarova Gulchexraning
"Yoshlar qomati, konstitutsion tiplari va ular-
ning qomatlarini mustahkamligiga bog'liqli-
gi" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga

Taqriz

Ushbu dissertatsiya mavzusi III-Bob,6-bo'limdan iborat bo'lib,I-II-boblarda mavzu ilmiy asosda yoritib berilgan,III-bobda esa adabiyotlar sharxi va taxlili keltirilgan.Uning hajmi 70 ta sahifa, 16 ta jadvaldan iborat.

Magistrant G.Qaxarova "Yoshlar qomati,konsitutsion tiplari va ularning qomatlarini mustahkamligiga bog'liqligi" mavzusidagi dissertatsiya ishida yoshlarni qomatlarini tiplari,xolati, mustahkamlik darajasi,antropometrik o'lchamlar orqali ilmiy usullarni qo'llab o'rgangan.

Qayt etilgan tajribaviy qismi va nazariy qismlarida ilmiy yangilik amaliyotlari so'zsiz mavjud. Adabiyotlar yaxshi yoritilgan , mavzuga oid ma'lumotlar bilan bir qatorda internet ma'lumotlari ham batafsil keltirilgan.

Taqdim etilayotgan magistrlik dissertatsiya mavzusi to'liq yoritilgan,tuzilgan rejalar bajarilgan,tugallangan ish sifatida ko'rish mumkin.Material tushunarli va shu bilan birga ilmiy tilda bayon qilingan.Bajarilgan tadqiqot magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talablarga to'liq javob beradi va himoyaga tavsiya etaman.

FDU,Pedagogika fakulteti

kaf.dotsent

Q.Jabborov.

Farg'ona Davlat Universiteti magistratura bo'limi "Tabiiyot" fakulteti "Zoologiya" kafedrası 5A 420105 Odam va hayvonlar fiziologiyasi mutaxassisligi 2-kurs magistranti G.Qaxarovaning "Yoshlar qomati, konstitutsion tiplari va ularning qomatlarini mustahkamligiga bog'liqligi" mavzisidagi magistrlik dissertatsiya ishiga ilmiy rahbarining

XULOSASI

Magistrlik dissertatsiyaning maqsad va vazifalari magistrant

tomonidan qay darajada yoritilganligi: . Magistrlik dissertatsiyada qo'yilgan maqsad va vazifalar to'liq bajarilgan. Ushbu dissertatsiya ishi III-bobdan iborat bo'lib, 70 ta sahifadan va 16 ta jadvaldan iborat.

Tadqiqotning ilmiy jihatdan yangiligi: Ushbu magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashda, hozirgi davrdagi ayollarning qomatlarini turlicha konstitutsion tiplari va ularni yoshga bog'liq xususiyatlarini o'rganishga harakat qilgan.

Tadqiqotchining ilmiy taxlil qila olish qobiliyatini qisqacha ta'riflash:

Tadqiqotchi ayolardagi qomat o'zgarishlarini mustaqil ravishda yechimini topa oladi va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish qobiliyatiga ega.

Magistrant xulosalari va takliflarining sifati: Dissertatsiyada qilingan xulosa va takliflar o'zining ilmiy jihatdan aslanganligi va amaliyoti bilan bog'langanligi bilan aralib turadi va sifat jihatdan farq qiladi.

Dissertatsiyaning magistrlik dissertatsiyasiga qo'yiladigan talablarga

mosligi aks etishi kerak: Dissertatsiyada magistrant tomonidan bajarilgan yangi izlanishlar va ularning yechimi hamda ilmiy aslanganligi magistrlik dissertatsiyasiga qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi.

Ilmiy rahbar:

B.f.n., dotsent. S.Isroiljonov

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alekseeva T.I. Geograficheskaya sreda i biologiya cheloveka. M.,1977.
2. Bashkirov P.N. Ucheniye o fizicheskoy razvitiy cheloveka. M.,1962.
3. Bashkirov P.N. Proporsii tela u razlichnix konstitutsionalnix tipov.-
4. Uchen.zap.MGU. Antropologiya,1937.vip.10,s.103-117.
5. Bunak V.V. Antropometriya.M.,1941.
6. Bunak V.V. Metodika antropometricheskix issledovaniy. Izd. 3-e.M.; L.,1931.
7. Bunak V.V. Normalniye konstitutsionniye tipi v svete dannix o korrelyasii otdelnix priznakov.-Uchen.zap.MGU. Antropologiya,1940,vip.34,s.59-101.
8. Grimm G. Osnovi konstitutsionalnoy biologii i antropometrii.M.,1967.
9. Zubov A.A. Odontologiya.Metodika antropologicheskix issledovaniy.M.,1968.
10. Kliorin A.I. Chtesov V.P. Biologicheskkiye problemi ucheniya o konstitutsii cheloveka.M.,1985.
11. Nikityuka B.A. Chtesova V.P. Morfologiya cheloveka. Izd.MU.1990.
12. Roginskiy Ya.Ya. Levin M.G. Antropologiya.M.,1978.
13. Rusalov V.M. Biologicheskkiye osnovi individualno-psixologicheskix razlichiy.M.,1979.
14. Xrisanfova E.N. Konstitutsiya i bioximicheskaya individualnost cheloveka.M.,1990.


Yoshlarni qomati, konstitusion tiplari va ularni qomatlarini mustahkamligiga bog'liqligi.

Antropometriya - bu fizik antropometriyani fundamental bo'g'inidir. U miqdoriy tomonni o'z ichiga oladi. Keng miqqiyosli nazariya va amaliyot tizimi aniqlash usullari,turli sohalarda qo'llanilishi mumkin bo'lgan kattaliklarga bag'ishlangan.

Sog'liqni saqlash , xavfsizlik, ergonomika va antropometriya sohalarida asosiy e'tibor gavdani tuzilishi, tarkibi va tuzilmasini hamda inson gavdasi o'lchamlari va ish joyi, mashina, ishchi muhit va kiyim o'rtasidagi bog'liqlikka qaratilgan.

Antropometrik o'zgaruvchanlik gavdani o'lchovli tavsifi bo'lib,o'lchash birligi sifatida aniqlanishi, standartlashtirilishi va keltirilishi mumkin. Chiziqli o'zgaruvchanlik inson tanasida oson aniqlanadigan belgilar orqali topoladi.Odatda belgilar ikki xil bo'ladi: skelet-anatomik, teri orasidagi suyaklar orqali topiladi hamda amaldagi belgilar, pronsirkul yordamida maksimal yoki maksimal masofa orqali topiladi.

Antropometrik o'zgaruvchanliklar genetic vaiqlimiy bo'lib,individuum va populyasiyani o'zgaruvchanligini aniqlash uchun qo'llanadi.O'zgaruvchanlikni tanlab olish tadqiqotni mahsus maqsadiga bog'liq bo'lib, shu sohadagi boshqa tadqiqotlarga to'g'ri kelishi lozim, chunki inson tanasi uchun o'zgaruvchanliklar soni 2200 dan ortiqdir.



Antropometrik nuqtalar. 1-Boshni tepe qismi; 2-yuqori peshona;3-peshona; 4-yuqori burun; 5-burun; 6-jag'osti; 7-yelka; 8-yuqori ko'krak; 9-o'rta ko'krak; 10-quyi ko'krak; 11-tojsimon; 12-kindik; 13-o'rkachsimon; 14-qiltiqli; 15-qovli; 16-aylanma; 17-shilosimon; 18-falangali; 19-barmoqli; 20-yuqoriboldirli; 21-quyiboldirli.

1-boshni tepa qismi; 2-yuqori burun; 3-jag'osti; 4-bo'yin; 5-yuqori ko'krak; 6-yelka; 7-o'rta ko'krak; 8-tojsimon; 9-kindik; 10-qiltiqli; 11-qovli; 12-aylana; 13-shilosimon; 14-falangali; 15-barmoqli; 16-oyoqli; 17-tovonli.

Antropometrik o'zgaruvchanliklar asosan chiziqli o'lchovlar, masalan belgilar orasidagi masofa, diametrlar, masalan ikki yoqlama belgilar orasida, egrichiziqli, yoylar orasida, masalan, inson gavdasida ikki belgi orasida, aylanma; masalan, belgi va balandlik orasidagi o'lchovlar bo'lishi mumkin.

Boshqa o'zgaruvchanliklar mahsus usullar va asboblari talab etadi. Masalan, teri qatlami qalinligi mahsus doimiy bosimni kronsirkullar yordamida aniqlanadi. Hajmlar hisoblash yoki suvga cho'ktirish orqali aniqlanadi. Gavda sirti tavsiflari haqida toliq ma'lumot olish uchun biostereometrik usullar qo'llab sirdagi nuqtalarni kompyuter matrisasini tizish mumkin.

Antropometrik asbob-antropometr bo'lib, uzunligi bo'lib, vertikal va ko'ndaling o'lchamlarni amalgam oshirish mumkin. Odatda asbob 3 yoki 4 bo'limdan iborat bo'lib, bir-biriga kiydiriladi. To'g'ri yoki egri qisqichai sirpanuvchi qismi balandlik va diametrlarni o'lchash imkonini beradi. Yanada zamonaviy antropometrlar balandlik va diametrlarni o'lchash uchun bitta shkalaga egadir yoki raqamli mexanik yoki electron asboblari bilan jihozlangan.


Kichik sekstan-bo'yni aniqlash uchun hamda dastakli tarozi bilan jihozlangan antropometrdir.

Ko'ndalang diametrlar uchun kronsirkullardan foydalaniladi: 600 mm gacha o'lchovli antropometrlar va boshni o'lchash uchun 300 mm gacha bo'lgan asboblar. Ikkinchi asbob sirpanuvchan aylana ega bo'lsa, boshni o'lchash uchun qulaydir.

Tovon uchun planka tovonni tovonni o'lchash uchun, bosh uchun planka esa boshni dekart koordinatasini ta'minlab beradi. Bilaklar kronsirkul yoki sirpanuvchi beshta chizg'ichdan iborat mahsus asbobda o'lchanadi. Teri qatlami qalinligi $9,81 \times 10^4$ Pa doimiy bosimga ega kronsirkul bilan o'lchanadi (bosim 1mm^2 maydonga 10gramm og'irlik berib yaratiladi) yoy va aylanalarni aniqlash uchun tor egiluvchan po'lat tasma ishlatiladi.

O'zgaruvchanliklar sistemasi. Antropometrik o'zgaruvchanlik sistemasi gavdani o'lchashni kelishilgan to'plami hisoblanadi. Ergonomikasi va havfsizlik ta'minlashda asosiy muammo bu jihozlar va ish muhitini kelishilganligidir hamda kerakli o'lchamdagi kiyim tikishdir. Jihoz va ishchi muhit, asosan, gavda oyoq-qo'llari va sigmentlarini chiziqli o'lchashni talab etib, belgilarni balandligi va diametrlari asosida hisoblab topiladi. Kiyim o'lchami esa asosan aylana va yo'ylar olchamiga bog'liqdir, kerak bo'lsa, ikki sistemani birlashtirishi mumkin. Istalgan holatda har bir o'lcham uchun aniq fazoviy yo'nalishga ega bo'lishi lozim. Shuning uchun belgilar balandlik va diametrga yoy va aylanalar belgi bilan bo'g'liq yo'nalishiga ega bo'lishi lozim. Balandlik va egilishlar ko'rsatilishi lozim. O'zgaruvchanlik sonini ko'rib chiqayotganda minimum bilan chegaralanish lozim, chunki ortiqcha o'lchovlar sub'ekt va operatorga qo'shimcha og'irlik beradi. Ishchi muhit o'zgaruvchanliklari asosiy to'plami 33 tagacha kamaytirilishi mumkin.

Antropologiya-odam tanasining o'lchamlari to'g'risidagi fan bo'lib, u quyidagi asosiy o'lchamlar natijalarini o'rganadi. Bu o'lchamlarga quyidagilar kiradi:



Qo'lning gorizontal uzunligi;

Bo'yi;

Ko'zning balandligi;

Yelkaning balandligi;

Bilakning balandligi;

Oraliqning balandligi;

Qo'lni balandligi;

Yelkani kengligi;

Sonning kengligi(tik turganda);

O'tirgandagibo'yning balandligi;

O'tirgandagi bo'yning balandligi;

O'tirgandagi ko'zning balandligi;

O'tirgandagi yelka balandligi;

O'tirgandagi bilakning balandligi;

O'tirgandagi tizzaning balandligi;

Tizza bilan dumba muskullari orasining uzunligi;

Tirsakning kengligi;

Sonlarni o'tirgandagi kengligi;

Ko'rsatkich barmoqning kengligi(periferik qismda);

Ko'rsatkich barmoqning uzunligi;

Kaftning kengligi;

Bilakning kengligi;

Tovonning kengligi;

Tovonning uzunligi;

Peshonaning kengligi;

Boshning kengligi;

Boshning uzunligi;

Boshning quloqlar o'rasidagi kengligi;

Son suyagining balandligi;

Bo'yinning uzunligi va x.k. o'lchamlar o'lchanadi. Ushbu o'lchamlar 1980 yilda qabul qilingan. ISOFPD 7250 raqamli nomenklaturadan olingan. Ushbu o'lchamlarga qarab odam tanasini turli xil tiplarga bo'lish imkoniyati mumkin.





Иллюстрация некоторых измерений, перечисленных в Таблице 29.1

1-Tepa; 2-Chakka; 3-Qosh o'rtasi; 4-Iyak; 5-Yelka; 6-To'sh usti; 7-To'sh o'rtasi; 8-Tirsak; 9-Quvuq; 10-O'ynog'ich; 11-Bigizsimon o'simta; 12-Panjalar; 13-Ustki boldir; 14-Ostki boldir.



1-Tepa; 2-Qosh o'rtasi; 3-Ensa; 4-To'sh usti; 5-Bigizsimon o'simta; 6-Oyoq panjalari; 7-Tovon.

Odamning gavdasi asosan:


Normastenik;

Giperstenikka bo'lingan. Odamning tana qismlari xatto qo'lning bilak qismini o'lchab turib ham uni qaysi tipqomatga kirishi mumkinligini bilish mumkin. Qo'lning bilak qismini uzunligi 16-18,5 sm gacha normastenik qomat; Astenik tipdagi qomatda 16 sm dan past giperstenik qomatlilarda esa 18,5 sm dan ortiq bo'ladi.

Erkaklarning gavdasini qomati ularning ko'krak qafasini va qorning rivojlanishiga qarab aniqlanadi. Bundan tashqari xozirgi paytda skletning

rivojlanishiga qarab yengil suyakli, normal suyakli va o'g'ir suyakli tiplarga ham bo'lish mumkinligi aniqlangan.

Ayollarning gavdasini qomatlari boshqacharoq bo'lib, ularni to'rt tipga ajratish mumkin.



Gipersitenik tip- trapetsiyaga o'xshash qomat bo'lib, bo'yi ingichka beli aniq ko'rinadi, belidan tos aylanasi 25sm ortiq Semirgan paytda songa va tosga yog' to'planadi. Ba'zi bir paytlarda oyoqlari yaxshi rivjoolangan bo'lib qo'l suyaklari ingichkaroq bo'ladi. Bularga quydagi misol bo'ladi. Djuliy Robets, Shakira, Merial Strip, Djenefer Lopes va boshqalar. Normastenik tip___ qum soatiga o'xshash qomat bo'lib, yelkasi va tos bir xil kenlikda bo'ladi yoki katta farq qilmaydi. Bel aniq bilinadi tos belidan 25 sm katta semirganda yog' qavati bir xil tarqaladi. Bunday qomat tipga quydagi mashhur ayollar kiradi. Merlin Monro, Sofi Loren, Brijit Bardo va x.k. Ko'pchilik yuqoridagi tip ayollarning qomatlarini optimal variantdagi deb xisoblashadi.

Astenik tip –to'g'ri burchakka o'xshash qomat. Yelka tos bir xil kenglikda bel yaxshi ko'rinmaydi tanasi yerga yopishgan semirgan paytda qorin va bel qismida ko'krak qismida yog' qatlamlari hosil bo'ladi. Ko'pchilik bunday ayollar semerishga moyil bo'ladi. Bunday tipga quydagi mashxur ayollar kiradi.

Prinsessa Diana, Tina Turner Layza Minelli, Penilopa Kruus. Ushbu tipga ozg'in qomatga ega bo'lgan ayollar ham kirishi mumkin. Jizel Buntxen, Nikol Kidman, Kameron Dias.

Biknik tip –uchburchak tip. Yelkasi tosdan keng, tos ensiz beli yaxshi ko'rinmaydi oyog'i ingichka, lekin chiroyli. Semirganda oyoq qatlamlari yelkaga, ko'krakka, qoringa to'planishi mumkin. Bunday qomatlarga quyidagi mashhur ayollar kiradi. Greta Garbo, Marlen Ditrix, Madonna, Demi Mur, Jaklen Kennedi-Onasiss.

Ayollar qomatining tasnifi:

Quyida keltirib o'tiladigan to'rtta xilga tegishli qomat xili yaxshi nisbatlarga ega bo'lsa, juda ham chiroyli bo'lishi mumkin. Yelka va son parametrlari qanchalik farq qilsadisproporsiya shunchalik katta bo'ladi.

Noksimon (trapetsiya,qoshiq).

Yelkasi sonidan kichikroq ko'pincha ingichka bo'yin. Beli odatda, sezilarli namoyon bo'ladi. Dumbalari yumaloq, sonlari beliga nisbatan 25 smga ko'proq. Ko'kraklari ko'pincha sonlariga nisbatan kichikroq. Sonni yuqori qismida doimo yog' qatlamlari mavjud. Bunday turga tegishli ayol ortiqcha og'irlikka ega bo'lsa, yog' asosan son va dumba atrofida to'planadi. Ba'zida bel qorinda ko'zguga to'g'ri turganda qomatdagi o'zgarishlar yaqqol namoyon bo'ladi. Ba'zida noksimon turidagi ayollarda tananing yuqori qismi quyi qismidan bir muncha uzunroq bo'ladi. Oyoqlari keng suyakli, qo'llari tor suyakli bo'ladi. Bel pastroqqa tushadi. Nok turidagi ayolni bo'yi istalgan uzunlikda va turli og'irlikda-normal, semiz va ozg'in bo'lishi mumkin.

Qum soati. Yelka va sonni kengligi bir xil, yoki farqi shunchalik kamki, visual farq bilinmaydi, chunki badanning quyi va yuqori qismi bir-biriga proporsional bo'lib, bir-biriga mos tushadi. Bel aniq ko'rsatilgan.Dumbalar va ko'kraklar yumaloq shaklda. Sonlari belga nisbatan 25 smdan ko'proq. Sonlarini yuqori qismida yog' qatlamlari doimo mavjud. Bunday turga kiruvchi ayollar ortiqcha og'irlikka ega bo'lganda yog' bir tekisda taqsimlanadi. Ko'zguga to'g'ri turganda qomatdagi o'zgarishlar yaqqol namoyon bo'ladi. Ayol qachalik

semirmasin bel doimo ajralib turadi. Xatto ozg'in qomatda; Masalan, Kirsten Danstda-sonlari egiklikni saqlab qoladi.

Olimlar "qum soati" va "noksimon" ayol qomatini optimal variantlari deb hisoblaydilar.

To'g'ri to'rtburchak (banan). Yelka va sonlarni kengligi bir xil. Bel juda kuchsiz ifodalangan. Dumbalari yassi. Badani kuchli, baquvvat oyoqlari chiroyli. Sonlarini shartli ravishda tog'ri deb hisoblash mumkin, chunki ular yaqqol ifodalangan, egiklikka ega emas. Bunday turdagi ayol ortiqcha vaznga ega bo'lsa, yog' birinchi navbatda, bel va ko'krakka to'planadi. Sonni yuqori qismida yog' qatlamlari sezilmas darajada yoki umuman yo'q. Sonlari belidan 25 smdan kichikroq.

Agar bunday turga tegishli ayol ozisa ham, bel baribir yaqqol namoyon bo'lmaydi. Ko'pchilik holatlarda bunday turga tegishli ayollar semirishga moyil bo'ladi. Bunday turga- qirolicha Diana, Barbara Streyzand, Vanessa Refreyf, Layza Minelli, Glenn Klouz, Syuzen Sarandon, Jodl Foster, Tina Tayner, Mila Yovovur, Nikol Richchi, Lindsey Loxan, Kira Naytli, Penelopa Krus kiradi.

Teskari uchburchak(sabzi) - Elkasi keng, bo'ksasi tor, dumbalari yassi. Tosi tor. Beli aniq namoyon bo'lmaydi. Oyoqlari ingichka, lekin chiroyli. Bo'ksasini yuqori qismida yog' qatlamlari oz yoki umuman bo'lmaydi. Bo'ksasi aylanasi belidan 25 smdan kichikroq. Bunday qomatga ega ayol ortiqcha og'irlikka ega bo'lsa, yog' asosan yelkaga, ko'krakka, qoringa va ozroq darajada belga to'planadi. Agar ko'proq semirib ketsa yelka va qo'llari to'lishib, beli ko'rinmay ketadi. Ba'zida bunday qomatli ayollarda badanning yuqori qismi pastidan bir necha qisqa bo'lib, nozik chiroyli oyoqlarga badanning to'lishgan qorin qismi to'g'ri keladi. Bunday qomatli ayollar ba'zida kuchli yelkalar va muskullarga ega sportchilarga xos figuraga, masalan, Jesika Bil yoki Anna Kurnikova ba'zida Peris Xilton kabi subtak figuraga ega bo'ladilar.

Teskari uchburchak qomatlilarga Greta Garbo, Marlen Ditrix, Edit Piaf, Jaklin Kennedi-Onosiye, Demi Mur, Madonna, Sigurni Uiver, Enni Lennoke, Rene Zelveger, Freys Dkine, Siyenna Miller kabi yulduzlar kiradi.

Bunday qomatga juda churoyli, baland bo'lyi, chiroyli sonlar, ingichga belga ega bo'lgan ayollarni kiritish mumkin. Masalan, Djemi, Li Kartiye Sharliz Teron, Uma Turman.

Yuqoridagi 4 xil asosiy ayollar qomati bo'lib, so'nggi vaqtlarda qomatni yana bir xili- olmasimon ham uchramoqda.

Olmasimon qomat -bunday qomat doimo erkaklarda uchragan. Ammo hozirda ayollarda ham ko'p uchramoqda. Bu esa ayollar ko'p miqdorda "makkor ichimlik"- pivo iste'mol qilinishi bilan bog'liq. Olmasimon qomatlilarda nisbatan ozg'in bo'ksalar bo'lib, yelkasi bilan deyarli bir xil o'lchamda bo'ladi. Ko'pincha nozik oyoqlar, normal dumbalar, qappaygan qorin bo'ladi. Bel ko'rinmas. Agar bunday qomatga ega ayol ortiqcha og'irlikka ega bo'lsa, yog' asosan bel va qoringa to'planadi. Eng shaklsiz va disproporsional qomat xilidir.

-Qumsoat qomatga ega ayollar XX asrni o'rtalarida eng ko'p tarqalgan qomat xili bo'lib,hozirda eng oxirgi o'ringa tushib qoldi. Ko'pincha italyan hamda Sharqiy Evropa ayollarda uchraydi.

-Ingliz ayollarda eng ko'p tarqalgani-noksimon va to'g'ri to'rtburchak.

-Teskari uchburchak yapon va amerika ayollarda ko'proq uchraydi.

-Rossiyalik ayollarda turli xil qomatlar bo'lib,eng oxirgi o'rinda teskari uchburchak qomati turadi.

Dunyoda eng ko'p tarqlgan qomat xili to'g'ri to'rtburchak, so'ngra noksimon,uchinchi o'rinda teskari uchburchak, oxirgi o'rinda qum soati qomati kiradi.

XX asrni 90-yillariga qaraganda ayol beli o'lchami ortib, ayollar ham ancha bo'yga o'sdilar.

Makromorfologik tana tuzilishi.

Tana tuzilishini baholash usullari.

Gippokrat eramizdan avvalgi 430 yilda bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki turdagi insonlarni keltirib o'tgan. Ulardan birinchisi-baquvvat, muskulli, kuchli-habitus apoplekticus va ikkinchisi-habitus phtisicus-nozik,muskulsiz, kuchsiz.

Ko'p yillar davomida to XVIII asrgacha olimlar Gippokrat taklif etgan usuldan foydalanib kelishgan. XVIII asrdan boshlab esa bu ikki tur o'rtasida oraliq turni kiritishga intilmoqdalar.

Quyida eng ma'lum inson qomatini tuzilishini uch a'zoli turlarini keltirib o'tamiz:

1-Jadval.

Xall	1797	Sefalik	Muskul	Abdominal
Rostan	1828	Miya-nafa solish	Muskul	Degativ
Uolker	1852	Aqliy	Harakat	Oziq-ovqat
Karus	1852	Serebral-astenik	Atletsimon	Flegmatik
Uells	1869	Aqliy	Harakat	Hayotiy
Beneke	1878	Gipoplastik	Normal	Giperplastik
Xuter	1880	Sezuvchan	Kuchli	Oziq-ovqat
Verenus	1904	Asab-epitelial	muskul	Biriktiruvchi
Bin	1912	Giperantomorf	Gipoantomorf	
Sogo	1914	Serebral-nafa solish	Muskul	Ovqat hazm qilish
Brayent-Goldveyt	1916	Go'shxo'r	Mezoplastik	O'txo'r
Brugsh	1916	Torelka	O'rta yelka	Keng yelka
Mills	1917	Astenik	Normostenik	Giperstenik
Krechmer	1921	Astenik	Normosteniki	Giperstenik
Stokkard	1923	Chiziqli	Oraliq	Lateral
Bogomoles	1924	Astenik	Fibroz	Lipomatoz
Bauer	1924	Astenik	Stenik	Giperstenik
Bunak	1924	Yelka	Muskul	Ichak
Ashner	1924	Tor	Normal	Keng
Viola	1933	Mikrosplanik	Normosplanik	Megalosplanik
Shevkunenko	1935	Dolixomorf	Mezomorf	Braximorf

Bunday xilma-xillikni sababi nimada? Balki ular faqat nomi bo'yicha farq qiladilar. Xilma-xillikni asosiy sababi shundaki, olimlar tasniflash asosiga turli belgilarni olib, bunda inson qad-qomati tuzilishini ko'p tomonlama tuzilishini faqat bitta xossasini asos qilib olganlar.

Bu uch a'zoli sistemalarni asosiy kamchiligi nimada? Asosiy kamchilik shundaki o'rta tur bu chizmalarda faqat oraliq variant bo'lib boshqa turlardan bir

muncha uzoq turadi deb yoritib o'tgan. Bunakni muskul turi ham yelks va ichak turlaridan boshqa tomonda tur ishini V.I.Sergev isbotlab bergan.

Yelka va qorin turlari ko'plab umumiy belgilarga egadir: torelka, tortana, to'qimalar bo'sh, kuchsiz muskulatura. V.Sergev bo'yicha muskul turi alohida o'ziga xos parametrlarni tashkil etadi.

“Bola” turidan “kattalar” turigacha alohida turni bo'lishi 1921 yilda Ya.Ya.Roginskiy tomonidan aytib o'tilgan. Keyinroq qad-qomat tuzilishini ikki mustaqil parametrlari yoki koordinatalarini mavjudligi nazariy jihatdan korrelyasion analiz asosida A.Malinovskiy tomonidan asoslab berilgan.

V.Bunak ham qad-qomat tuzilishini ikki mustaqil parametrlari borligini aytib o'tadi: yog' yig'ilishi va muskulaturani rivojlanishi.

Uning fikricha bu ikki bir-biridan mustaqil belgilarni rivojlanishi boshqalarni belgilab beradi: ko'krak qafasi shakli, bel shakli, qorin va oyoq shakli. V.Bunak bo'yicha qad-qomat turi ta'kidlangan belgilarni yig'indisini tashkil etadi. Ammo, birinchidan bu sistemadan suyak sistemasini rivojlanishi bilan bog'liq belgilar hisobga olinmagan. Ikkinchisidan, qo'shimcha belgilar, masalan, ko'krak qafasi va qorin shakli muskulaatura va yog' yig'ilishi rivojlanishidan turlicha farq qiladilar. Ammo, tegishli sistemada o'z aksini topmagan. Bu sistemada ba'zi kamchiliklariga qaramasdan antropologiyada keng tarqalgan bo'lsada, psiholog, fiziolog va hakamlarga ma'lum emas.

1940 yilda V.Bunak yangi sistema yaratib, unga ko'ra qad-qomat tuzilishini aniqlashda mustaqil parametr hisoblangan o'rta asosiy belgiga yondashishi lozim: yog' yig'ilishi va muskulaturani rivojlanishi hamda tana mutlaq uzunligi.

Individuumlardagi har bir belgini ifodalanish darajasi asosida uchta guruhga bo'linadi va ajratilgan guruhlarni almashtirish natijasida 27 qad-qomat turi olinadi. Bu sistema inson tanasini ko'p o'lchamli tuzilishi haqidagi tasavvurlarni oldinga rivojlanishiga bir qadamdir. Ammo, muallif, uchinchi parametrlarni ikkinchi darajali (bo'y-suyak uzunligi) deb hisoblaydi.

V.Bunak sistemasiga nisbatan Ya.Roginskiy-A.Malinovskiy sistemasiga ko'proq ahamiyatga egadir. Ya.Roginskiy-A.Malinovskiy sistemasiga ko'ra qad-

qomat turlarini aniqlashni ikki koordinatali sistemada amalgam oshiriladi. Shuni aytish lozimki, Yevropalik olimlar inson tanasini ikki o'lchamli tuzilishi haqidagi g'oyalarini birmuncha kechroq ilgari surganlar.

Har bir koordinata bo'yicha tekshirilayotganlar o'rta guruhga bo'linadilar va ularni almashtirish natijasida 9 umumiy tur olinadi. Birinchi koordinata asosida to'qimalar oziqlanish darajasi yotadi. Bu koordinata astenikdan piknik tomon ortib boradi. Ikkinchi koordinata asosida suyuq to'qimasi bo'yi yotadi. Bu koordinata serebrallikdan atlet tomon yo'nalgandir. Bu usul nazariy tomondan ishlab chiqilgan bo'lsada, amalda tadqiqotlar orqali uni tasdiqlash lozim.

U.Sheldon boshchiligidagi bir guruh olimlar o'z tasniflashini embrion homilasi va uch varaqasidan endoderma, mezoderma va ektodermadan rivojlanuvchi turli to'qimalarni asos qilib oldilar. Chunkita'kidlash lozimki, Sheldon bu g'oyani boshqa tadqiqotchilardan oldi. Homila varaqasidan rivojlanuvchi har bir to'qima U.Sheldon tomonidan yetti balli shkala bo'yicha baholandi. Qad-qomatni istalgan turi to'qimani rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi uchta raqam bilan tavsiflangan. Sheldon to'qimalarni istalgan qo'shilishini (7-7-7-yoki 1-1-1 yoki 1-1-7 dan tashqari) ruxsat bergan. U taxminan 80 dan ortiq "parsial turlarini ajratib, ular uchta umumiy turga: endomorph, mezomorf va ektomorfga tegishlilikini ko'rsatib o'tgan.

Organizmdagi asosiy to'qimalarni nisbiy rivojlanishidan tashqari, Sheldon o'z tasnifiga ikki indeksni kiritdi: gepandomorfiya u (boshqa jins belgilarini mavjudligi) va to'qima indeksi to'qimalar "yumshoqligi".

Sheldon.fotoskopiyaning standartlashtirilgan usulini, ya'ni tekshiriluvchilarni fotografiyalari bo'yicha belgilarni rivojlanishini belgilab berdi .Bu usulni ishonchlilikni to'g'risida dalillar bo'lmasa ham, bu Krechmerni sub'ektiv usuliga nisbatan to'g'ri keladi. U.Sheldonnin asosiy kamchiligi bo'lib, birinchidan, u hamma varaqachalarini murakkab rivojlanishini soddalashtirdi, ikkinchidan, u qad-qomat komponentlarini mustaqil koordinatalar sifatida qaradi.

Qad-qomat tuzilishini baholash natijalari.

Dastlab yeti tanlab olingan ko'rsatkichlar orasida korrelyatsiya koeffisientlari tanlab olindi. Quyidagi jadvalda interkorrelyatsiya matritsasi keltirilgan.

Olingan korrelyatsiya koeffisientlari adabiyotdagi ma'lumotlarga to'g'ri keladi. Jadvaldan ko'rinadiki, yog' to'planishni rivojlanishi belgilari yuqori darajada bir-biri bilan korrelyatsiyalanadi.

Muskulatura va suyakni rivojlanishi belgilari orasidagi bo'g'lanish static jihatdan muhimdir. Belgilar majmuasi miqdorini va haqiqiylikini aniqlash uchun omil texnikasi, ya'ni Tesrton Sentroid usuli qo'llanildi. Muhim va yetarli omillarni aniqlash uchun referent o'qlarini grafik aylanishini orthogonal usuli bilan aylantirib oddiy tuzilishlar olindi.

Qad-qomat tuzilishi belgilari interkorrelyatsiya koeffisientlari.

2-Jadval.

	Belgi	1	2	3	4	5	6	7
1.	Yog' to'planishi		02	32	59	09	-22	-19
2.	Muskulatura			06	-09	37	14	43
3.	Ko'krak qafasi shakli				18	03	-17	-00
4.	Qorin shakli					-02	-17	-23
5.	Epifizlar						44	43
6.	Peshona suyagi relefi							29
7.	Tana uzunligi							

Birinchi omil bo'yicha ahamiyatli deb yog' toplanishi (80), qorin shakli (76) va ko'krak qafasi shakli (42) olindi. Demak bu omilni "yog'li" deb nomlash mumkin.

Ikkinchi “suyak-muskul”omili bo’yicha ahamiyatli deb epifiz (77), tana Quyidagi jadvalda shunday omil yechish natijalari keltirib o’tilgan. Jadvaldan ko’rinadiki, ikki ahamiyatli omillar ajratib olindi.

Uzunligi (63) muskulatura 58) va peshona reliefi (48) topildi. Shunday ekan, tana uzunligi va muskulatura rivojlanishi birgalikda ko’rib chiqiladi.

Antropologik belgilar orasidagi bog’larni omilli ifodalanishi.

3-Jadval

Belgilar	Omillar	Omillar	
	I	II	h^2
Yog’ to’planishi	80	00	64
Muskulatura	00	58	34
Ko’krak qafasi shakli	42	03	19
Qorin shakli	76	-13	75
Epifizlar	00	77	69
Peshona suyagi reliefi	-24	48	36
Tana uzunligi	-21	63	74

Omillar real ma’noga ega bo’lganligi, ya’ni gumoral, nerv kabi organizmni ichki sistemalarini faoliyatini matematik ifodalagani uchun L.Tertonning sentroid usuli qo’llandi. Bu muammo murakkab bo’lib, genetic tomonni va ovqatlanish, mashq qilishni o’z ichiga olishi lozim.

“Yog” koordinatasi asosida assimilyatsiya-dissimilyatsiya jarayonlari yotadi. V. Bunak bo’yicha yog’ to’planishi ortishi bilan qonda patalaza va lipaza kabi moddalar miqdori oshib, yog’ almashishining darajasi ortadi.

“Suyak-muskul” to’qimasi asosida bir necha murakkab mexanizmlar yotadi. Ulardan eng muhimi o’sish mexanizmi bo’lib, suyak va muskul to’qimalari ontogenezida bir tekisda rivojlanadigan muskul to’qimasiga nisbatan o’z o’sishini bir zumda o’zgartiradi. Malikovski fikricha, suyak koordinatasiga kiruvchi belgilar asosida o’sish jarayonini turlicha darajasi yotadi. “Suyak-muskul”

koordinatasining rivojlanishini ikkinchi omili bo'lib, gidrofil(suv) almashinuvi hisoblanadi. Bizning tadqiqotlarimiz tabiiyki, qad-qomat tizimining ikki koordinatali chizmasini beradi.

Dastlab barcha tekshiruvchilar har bir ajratilgan koordinata asosida o'rtacha qiymat va belgilarni o'rtacha kvadrat gentlanishi asosida kuchsiz, o'rtacha va kuchli bo'lgan uch guruhga bo'linadilar. O'rtacha kattalikdan $+\frac{2}{3}$ sigma belgini tafsiflovchi belgilar o'rta; o'rtacha qiymat minus $\frac{2}{3}$ sigmadan kichik bo'lgani kuchsiz; o'rtacha qiymat+minus $\frac{2}{3}$ sigma bo'lgani kuchli ifodalanish darajasiga kiritiladi.

Har bir kordinata bo'yicha ajratilgan guruhlar qad-qomatini xususiy turlari deb nomlandi. Har bir koordinati bo'yicha mazmuniga ko'ra uchta yangi va xususiy turlarni almashtirish natijasida to'qqizta yangi qad-qomat turlari ajratganimiz uchun bir muncha o'zgartirilgan nomlashni qo'lladik.

Birinchi "yog' morfotipologik koordinatasi asosida quyidagicha nomlanadi: astenoid(A)-yog' to'planishi kuchsiz rivojlangan, to'g'ri qorin va yassi ko'krak qafasi; o'rta-yog'(O'Yo)- yog' to'planishi o'rtacha rivojlangan, to'g'ri qorin va silindrsimon ko'krak qafasi; piknoid (P)-yog' to'planishi kuchli rivojlangan; yoysimon qorin va konussimon ko'krak qafasi.

Ikkinchi "suyak-muskul" to'qimasi uchun quyidagi turlar ko'rildi:

Grasiloid(G) oyoq-qo'llarni epifizini kuchsiz rivojlanishi, past bo'y, kuchsiz muskulatura, peshona relefini kuchsiz rivojlanishi; o'rta suyak-muskul(O'SM)- oyoq-qo'llar epifizini o'rtacha rivojlanishi; o'rtacha bo'y, o'rtacha muskulatura va peshona relafi; Atletoid(A)-epifizlarni kuchli rivojlanishi, yuqori bo'y, muskulatura va peshona relafi kuchli rivojlangan.

Tekshiruvchilar yuqoridagilarga asoslanib quyidagicha taqsimlandi: "yog'" koordinatasi A-39; O'Yo-46 va P-19; suyak muskul koordinatasi: G-26; O'SM-52 va AT-26 ta inson. Quyidagi jadvalda yuqoridagi ma'lumotlarni nazariydan farq qilishi ko'rsatib o'tilgan.

4-Jadval.

Ikkala koordinata turlari yig'indisi	Tekshiruvchilar soni	%	Nazariydan farq qilish farqi	Ahamiyati darajasi
AG	16	41	ortiq	0,05>p>0,01
AO'SM	15	38,5	Farq qilmaydi	-
AAT	8	20,5	<<	-
O'YoG	6	13,1	<<	-
O'YoO'SM	25	54,3	<<	-
O'YoAT	15	32,6	<<	-
PG	4	21	<<	-
PO'SM	12	63,2	<<	-
PAT	3	15,8	<<	-

Antropometriya.

Antropometriya-odam tanasining bo'yi va vaznini o'rganuvchi fandır. Leonardo da Vinchi barinchilardan bo'lib odam tanasining ideal parametrlarini o'rgandi va ko'rsatib o'tdi. U tklif etgan anatollik proporsiyalar hozirgi vaqtgacha butun dunyoda san'at maktablarida o'rganilmoqda. Leonardo da Vinchining ideal proporsiyalar nazariyasiga alohida olingan ko'krak, bel va bo'ksa hajmlari xech narsani ko'rsatmaydi, hamma narsa ularni nisbatidir.

Hozirgi jamiyatda inson tanasini parametrlarini o'zgarishi har 15 stilda ko'rib chiqiladi, ya'ni shu davrda seklerasiya jarayoni natijasida inson qomatining proporsiyalari, o'lchamlari va shakllari o'zgaradi. Barchaga ma'lum 90-60-90 hamma uchun ideal ayol proporsiyalari uchun etalon bo'lib hisoblanadi. Tana proporsiyalari barcha ayollar uchun bir xil bo'la olmaydi, chunki genetic jihatdan turli tana qomatlari mavjuddir.

Inson gavdasinining asosiyasosiy turlariga astenik (noziksuyak), normastenik (normalsuyak), hamda giperstenik (kengsuyakli)lari kiradi. Astenik turdagi gavdaga ega ayollarga ingichka suyak, uzun qo'l-oyoqlar, ingichka bo'yin va muskullar nisbatan kuchsiz rivojlangan bo'ladi. Bu turdagi ayollar odatda o'rtacha og'irlikka ega bo'lib, ular chaqqon va harakatchandir. Juda ko'p ovqat iste'mol qilganda ham bunday ayollarni og'irligi ortmaydi, chunki ular energiya yig'ishga qaraganda tezroq sarflaydilar. Agar bunday turdagi ayol juda ham

ingichka belga ega bo'lsada,ingichka suyak hisobiga ularning o'rtacha bo'ksalari juda nozik ko'rinadi.

Normastenik turdagi ayollarda gavdani asosiy o'lchamlar proporsionalligi hamda to'g'ri nisbat bilan ajralib turadi.Eng go'zal ayollar qomati shunday turda uchraydi.

Giperstenik turdagi ayollarda gavdani ko'ndalang o'lchamlari ustun turadi.Ularning suyaklari qalin va og'ir;yelka,ko'krak qafasi va bo'ksalari keng;pyoqlari ba'zida qisqaroadir.Bunday turdagi ayollar shuni yodda tutishlari lozimki,ular semirib ketishga moyildir.Gavdani tahminan turini aniqlash uchun qo'l-bilak aylanasini o'lchash lozim.Normasteniklarda 16-18.5 sm,asteniklarda-16 sm,gipersteniklarda 18.5 smga teng.

Ayol bo'yini uzunligi gradatsiyasi quyidagilarga ega;

Past bo'-150sm va undan kichik;


O'rtachadan kichik-151-156sm;

O'rta-157-167sm;

Yuqori-168-175sm;

Juda yuqori-176 va undan yuqori.Lekin so'nggi yillarda zamonaviy yoshlarni akselerasiyasi hisobiga normastenik va giperstenik ayollar uchun bo'yi uzunligi 166 dan 170smgacha; Asteniklar uchun esa 168dan 172 smga teng.

To'g'ri oyoqlar. Oyoq uzunligi va bo'y o'rtasida ma'lum bir proporsiyalar mavjuddir. gar oyoqlar uzunligi bo'y uzunligini yarmidan kichik bo'lsa, qisqa oyoqlar deyiladi. Oyoqlarni uzunligi bo'yni yarmidan katta bo'lishi, gipersteniklarda-2-4 sm;normasteniklarda-4-6sm; asteniklarda-6-9 smni tashkil etadi.



Masalan, normastenik turda 168 sm bo'y uzunligida oyoqlar uzunligi 90 sm bo'lsa, bu idealdir. Oyoq uzunligi son suyagi bo'rtigidan polgacha o'lchanadi. Oyoq diametric boldirda gavda turiga ko'ra 36dan-40 smgacha, tovonda 16-20 smni tashkil etadi. Mutahasislar gavda turiga qarab oyoqlarni ideal shakli jadvalini tuzib chiqdilar. Masalan; 156smbo'yda va 50-55kg vaznda oyoq aylanasi sonda 48dan 54 sm gacha; boldirda 31-32 sm; tovonda 18-20 sm bo'ladi; 160sm bo'y uzunligi va 55-58kg vaznda oyoq aylanasi sonda 50dan-56sm, boldirda 32-35sm, tovon 19-22sm; 167sm bo'y uzunligida va 56-65kg vaznda oyoq aylanasi sonda 52-58 sm, boldirda 33-36 sm, tovonda 22-23 smni tashkil etadi.


To'g'ri vazn. Gavda vazni gavda turiga bog'liq bo'lib, inson yoshi juda muhimdir. Vazni hisoblash variantlaridan biri –ketle indeksidir. Bu indeksiga ko'ra, astenik turdagi ayollar har bir bo'y santimetriga-325gr, normasteniklar 350 gr va gipersteniklar-375 grammga ega bo'lishlari lozim. So'ngra indeks bo'yga ko'paytirilib sizga tog'ri keluvchi vazn hosil bo'ladi. 160 smdan kichik bo'lgan ayollar uchun vazn normaldan 10-15% kam bo'lishi lozim. Gavda vazni yoshga ham bog'liqdir. Quyidagi jadvalda 15dan 40 yoshgacha bo'lgan ayollar uchun bo'y va vazn nisbatlarida koeffisenti keltirilgan

5-Jadval


Yosh	Astenik	Normastenik	Giperstenik
------	---------	-------------	-------------

15-18	315	3ni25	355
19-25	325	345	370
26-39	335	360	380

Gramdagi vazn smdagi bo'yin uzunligiga bo'linadi. O'zingizni normal vazningizni aniqlash uchun sm dagi bo'yni uzunligini sizni yosh va gavda turiga to'g'ri keluvchi vazn-bo'y koeffisientiga ko'paytirish lozim.




Bo'ksa, bel va ko'krak. Bo'ksa, bel, ko'krak aylanasini bilish gavda to'g'riligini aniqlash uchunimkon beradi. Bunday ko'rsatkich "vaytiz" deb nomlanadi. Yosh ayollar uchun(18-28yosh) vaytiz ko'rsatkichi normal bo'ladi, Agar ko'krak qafasi aylanasini bo'y uzunligini yarmi plyus 2-5 sm;
 Siynasi-ko'krak qafasi aylanasini plyus 8-10 sm;
 Beli uchun-tikka bo'yi minus 100;
 Bo'ksasi bel aylanasidan 25-30sm ko'prpq bo'lishi lozim.
 Astenik ayollarda ko'krak qafasi aylanasini-84-86 sm;
 Siynasi uchun yuqoridagiga 4-6sm qo'shiladi;
 Bel ularda ingichka bo'lib,60-64smda bo'lad;
 Bo'ksa aylanasini 25-30sm ko'p bo'ladi.



Giperstenik ayollarda ko'krak qafasi aylanasi bo'y uzunligi yarmidan 8-10 sm ga ko'proq bo'ladi. Ko'kragi 8-10sm ko'proq bo'ladi. 166-168 sm bo'y uzunligida bel aylanasi 70-76sm, bo'ksa aylanasi,ya'ni8-10 sm ko'proq bo'ladi. Texas shtati universiteti psixologiya prpfessori Devendra Singx ham shunday xulosaga keldi. Faqat u bo'ksa va bel proporsiyalarini present hisobida xisoblagan Uning nazariyasiga ko'ra bel hajmi bo'ksa hajmini 60-70%ni tashkil etsa ideal deb hisoblangan. Buning uchun bel hajmini bo'ksa hajmiga bo'lish lozim,olingan koeffisient 0.6dan 0.7gacha bo'lishi lozim.Ideal go'zallar bo'lib, bu nisbatga ko'ra Venera Miloskaya-70% va Rubensa-70%ni hisoblash mumkin.

Real ayollar oprsida bel-bo'ksa nisbatida ideal ayollar quyidagilardir Merilin Monro-0.61(59/9.5); Brijet Bardo 0,66(58,3/89); Demi Mur 0.72(66/91); Klaudia Shiffer 0,67(62/92); Sindi Krouffu 0,69(58/84); Jizil Bundxen0.70(61/86); Kayli Linof 0.70(63/89).

Vrachlarni xulosasiga ko'ra bel aylanasi bo'ksa aylanasi nisbati 0.85ga teng endokrin muvozanatidan yuqori bo'lmaslik lozim.



Agar sizni belingiz bo'ksa aylanasini 85%i dan ortiq bo'lmasa, siz estetik va tibbiyot nuqtai nazaridan go'zalsiz.

1918 yildayoq "Milo bar bell" kompaniyasi asoschisi Alan Kelvert Filadelfyada "Men qanday o'lchamlarga va qancha vaznga ega bo'lishim lozim" degan broshyuri nashr etdi. Kumturitlar doimo o'z gavdalarini oddiy odamlarnikiga solishtirib,ulardan qanchalik farq qilishiga qiziqib kelishgan.

Ob'ektiv standart sifatida Gresiya ideallarida tayanardilar. Ba'zilar Leonardo da Vinchi yozmalarga e'tibor qaratgan.Ammo birortasi ham real atlet,pahlavon va kulturistlarni hajmlarini aks ettirmagan.Real statistic ma'lumotni ochish mumkin,chunki deyarli barcha bodibildinglar o'z o'lchamlarini ortirib aytishga moyildirlar. Bodibilding bo'yiga musobaqalar ishtirokchilarni turli o'lchamlarini o'lchash bilan emas,balki faqat bo'y va og'irlikni o'lchaydilar.Ammo yillar davomida atletlarni antropometrik ko'rsatkichlarini to'plab beradigan insonlarham bor. Devid P Uillogbi 1929 yildan 1979 yilgacha bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish bilan shug'ullangan.Dastlab u ma'lumotlarni hozirda mavjud emas "Physical culture" jurnalidan, so'ngra "I rokman" jurnalidan olgan.Quyida Devid Uillogbi tomonidan ishlab chiqilgan ikki jadval keltirilgan.

1-jadvalda pahlavonlar hamda kulturistlardan boshqa istalgan sport atletlari uchun optimal o'lchamlar keltirib o'tilgan.Uzoq masofaga yugiruvchi sportchilar futbolistlargaqariganda kamroq muskul hajmlariga egadirlar.Ammo 1979 yilda"Metropolitan Life Insurance Co"da tekshirilgan jadval turli sport turlari

vakillarini aniq o'lchamlarini o'z ichiga olgan. Jadval milliondan ortiq sportchilarni antropometrik o'lchamlari asosida tuzilgan.


6-Jadval.

Bo'yi	Vazni	Bo'yni	Yelka muskuli	Yelkaoldi	Bilakuzuk	Ko'krak
152,5	51,7	35,8	33,5	27,9	16	93,3
157,5	57,2`	36,8	34,5	28,7	16,5	96,3
165,5	62,6	39	35,8	29,7	17	99,3
167,6	68,5	39	36,8	30,7	17,5	102,4
172,7	74,2	40,4	38,1	31,7	18	105,4
177,8	81,6	41,6	39,1	32,5	18,5	108,7
182,9	89	42,7	40,1	33,5	19	111,8
188	96,6	44	41,4	34,5	19,5	115
193	104,8	45,2	42,4	35,3	20,3	118
198	113,4	46,5	43,7	36,3	20,8	121,2
Bel	Chanoq,tos	Son	Tizza	Boldir uzunligi	Boldir muskuli	Yelka
69,8	83,8	50,3	32,8	33,5	19,5	43,7
72	86,6	52	33,8	34,5	20,3	45
74,4	89,4	53,6	36	35,8	21	46,2
76,7	92	55,4	36	36,8	21,6	47,5
79	95	57	37,3	38,1	22,3	48,8
81,5	97,8	58,7	38,4	39,1	22,9o	50,3
84	100,6	60,2	39,4	40,1	23,6	51,6
86	103,4	62	40,6	41,4	24,4	53,1
88,4	106,2	63,8	41,7	42,7	24,9	54,4
91	109	65,3	42,7	43,7	25,6	55,6

7-jadvalda pahlavon hajmda kulturistlar va fuybolchilar uchun tegishli o'lchamlar keltirib o'tilgan.


Bo'yy	Vazni	Bo'yni	Yelja muskuli	Yelka oldi	Bilakuzuk	Ko'krak
152,5	77,6	42	43,4	33,5	18	117
157,5	85,3	43,2	44,7	34,5	18,5	120,9
165,5	94	44,7	46,2	35,8	19	124,7
167,6	103	46	47,7	36,8	19,8	128,8
172,7	112,5	47,2	49	38	20,3	132,6
177,8	122,5	48,8	50,5	39	21	136,6
182,9	133,4	50	51,8	40,1	21,6	140,5
